

**XALQ MA'NAVİY MEROSINING AXLOQIY KVINTESSENSIYASI VA UNING
IJTIMOIY-AXLOQIY IDEALDA AKS ETISHI****Yusupova F.Z. -***Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti
dotsenti v.b., f.f.f.d. (PhD)*

Ijtimoiy taraqqiyot davomida xalq deb ataluvchi ijtimoiy birlik takomillashib borar ekan, o'z o'tmishining yaratuvchisi, mentalitetiga ega, ming yillik irodasini shakllantirgan sub'ekt sifatida tarixda gavdalanadi. O'tmish xalqlar boy madaniyati avlodlar uchun tajriba, qadriyatlar katta boylikdir. Yurtboshimiz Sh.Mirziyoev inson ma'naviy olami, xalqlar madaniyatini belgilaydigan manbalar haqida ta'kidlab shunday deydi: "Barchamizni yaxshilik, tinchlik va bag'rikenglikka chorlaydigan muqaddas Islom dinining haqiqiy qadriyatlarini keng tushuntirishga ko'maklashish zarur... Shu nuqtayi nazardan, buyuk ajdodlarimiz bo'lgan islom olamining mutafakkirlari asarlarini, ularning butun jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan bebaho hissasini chuqur o'rganish, teran anglash va keng ommalashtirish alohida ahamiyatga egadir" [5;422,35-bb.].

Xalq ma'naviy merosining kvintessensiyasi mutafakkirlar qarashlarida, an'analarida va ijtimoiy-axloqiy ideallarida aks etib boradi. Milliy va diniy qarashlar ijtimoiy amaliyot kabi omuxtalashib, imon va maslakda uyg'unlashib ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy axloqiy qarashlarda aks etib borgan. Xalq ma'naviy merosi bo'lgan yozma va og'zaki ijodida mukammallik, vatanrarvarlik, qahramonlik, tinchlikrarvarlik obrazlari aks ettiriladi va madh etiladi. Demak, xalq ertaklari, dostonlari va rivoyatlarida shaxs, ijtimoiy muhitning maqsadi, intilish ufqi, etnomadaniy qadriyatlar jamlanmasi – idealda aks yetadi.

Xalq ma'naviy merosi asrlar osha yuksaklikka intilib, orzu-umidini aks ettirib, kelajak avlodda o'z orzulari ro'yobini ko'rishni maqsad qilib qo'yadi. Ma'naviy yetuklik mezonlari va milliy-diniy tamoyillar inson siymosida birlashib ideal inson obrazi maydonga chiqadi.

Xalqlar ma'naviyatining umumiy "skeleti" bir xil qilib yaratilgan. Insonning hayotdan, yashashdan maqsadi, dunyo va oxirat haqidagi ruhoniyl fikrlari, ezgulik va yovuzlik haqidagi fikrlari aynan bitta sterjenga birlashadi. Bu haqda mashhur rus adibi Lev Tolstoy shunday deydi: "Butun insoniyat ma'naviy ibtidolar va ularga rahnamolik qiluvchi ideallar asosida yashaydi va rivojlanadi. Bu ideallar dinlarda, fanlarda, san'atda, davlatchilik shakllarida o'z ifodasini toradi. Bu ideallar yuksalgandan yuksala boradi va insoniyat eng oliy ne'matlar sari boradi. Men insoniyatning bir bo'lagiman, shuning uchun ham mening vazifam insoniyat ideallarini anglash va amalga oshirishga ko'maklashishdir"[6;16-b.]. Xalqlarning yashash tarzi, fikrlashi va e'tiqod masalalarini tadqiq etishda shu muhitda yaratilgan dostonlar, rivoyatlar va afsonalar o'tmishni yuzaga chiqaruvchi, xalq idealini asoslovchi hujjatga aylanadi. Ular shu xalqning o'tmishini, ijtimoiy ruhiyatini, imon-maslagini, ishonch-etiqodini o'rganishda birinchi manbadir.

Mutafakkirlar o'z davridan biroz ilgari, yetuk inson, fozil jamiyat haqida fikrlar yuritganlar. Ular shu xalqning orzu-umidini odil podshoh, fozil jamiyat qurish bilan amalga oshirmoqchi bo'lishadi. Sharq mutafakkirlari ijtimoiy ideallarining rivojlanishiga qadimgi yunon mutafakkirlarining falsafiy qarashlari jiddiy ta'sir qilgan. "Sharq xalqlari orasida axloq falsafasiga oid mukammal asar yaratgan olimlardan biri Husayn Voiz Koshifiy ilmiy falsafiy dunyoqarashining shakllanishida, ayniqsa, axloq falsafasida ratsionallik tamoyiliga amal qilishida antik davr yunon mutafakkirlari ta'limotlarining ta'siri falsafiy metodologik jihatdan tahlil etiladi. Yunon mutafakkiri Arastu axloqshunoslikni alohida fan sifatida ajratar ekan, inson o'zining ratsional aqliy faoliyati orqali axloqiy fazilatlarini takomillashtirish tamoyilini ilgari suradi. Arastu etikasi asosida yotgan ratsionallik tamoyili musulmon Sharq falsafasida takomillashtirildi. Xususan, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Alisher Navoiy kabi ko'rlab mutafakkir allomalarimizning falsafiy-axloqiy ta'limotlari, yaratgan asarlari bunga misoldir"[7;13-b.]. Yuqoridagi mutafakkirlarning ijodida yunon faylasuflarining ideal jamiyat haqidagi qarashlari ta'sirini sezish mumkin.

Falsafiy qarashlar tufayli ijtimoiy-axloqiy idealning metodologik jihatlari o'zgarib, axloqiy munosabatlar, fazilat va illatlar to'g'risida ratsional fikrlar yuzaga kela boshladi. Masalan, Abu Rayhon Beruniy inson tarbiyasiga salbiy ta'sir qiluvchi illatlar haqida fikr yurita turib, ular ko'r hollarda yovuz niyatda qilinishini qayd yetadi. "Haddan ortiq g'azab vahshiylik keltiradi va bevaqt qilingan lutf obro'ni ketkizadi"[14], – deydi. Ibn Sino yesa "Inson toki o'zini mayda gar, o'chakish, janjal, shikoyat, norozilik, o'hu vohlardan ozod qilolmas ekan, u iflos va rastlik tabiatidan xalos bo'lolmaydi"[15], – deydi va bunday illatlarni bartaraf yetishda tarbiya omiliga tayanishni ta'kidlaydi. Bu qarashlarda sharqona axloqiy rand nasihatlar, milliy-diniy didaktika bilan yunon metafizikasining o'zaro ta'sirini ko'rish mumkin.

Tahlil va natijalar. O'tmish merosimizning ma'naviy mag'zini ijtimoiy-axloqiy ideal rakursida tahlil qilsak, unda xalqning mashaqqatli hayotini baxtli darajaga chiqarishga harakat qilgan (*Avesto g'oyalari, islom manbalari, tasavvuf ta'limoti kabi*) diniy-mistik g'oyalar, ilmiy-ommabor qarashlar va falsafiy mushohadaga boy mutafakkirlar tomonidan yaratilgan asarlarga bo'lib chiqishga to'g'ri keladi. Ularda fazilat va illatlar oralig'idagi inson shaxsining milliy-diniy tarbiyasi haqida fikrlar yuritiladi [9].

Ijtimoiy taraqqiyot davomida hayot sohalarini takomillashib, insonlar ongi va tajribasi oshib borgan sari, inson xulq-atvorida sodir bo'layotgan o'zgarishlar, jamiyatda ma'lum bir tartibotni yaratish, boshqaruv mezon va meyorlari haqida bosh qotira boshlagan. Inson bilan jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning tartiboti haqidagi g'oyalar, ya'ni ijtimoiy-axloqiy idealga bevosita ehtiyoj tug'ildi. Odamlarda "ezgulik" va "yovuzlik" haqidagi tasavvur, tushunchalar shakllandi. Shunday qilib, axloqiy ideal diniy ideal bilan simbioz shakllandi va kishilar hayotni mazmunini belgilashda me'yor vazifasini bajara boshladi.

Mana shu ijtimoiy-tarixiy jarayonda, jamiyat sohalarini murakkablashishi natijasida "har bir kasb vakillari o'zlariga homiylik qiladigan ma'budalarini, xudolarni, ruhlarni, pirlarni va boshqa ma'naviy kuchlarni o'ylab tordilar"[8;92-b.] va ularni o'zlari uchun axloqiy ideal sifatida qabul qildilar. Bu narsa axloqiy idealni dastlabki ijtimoiylashuv, ayni chog'da, politeistik tasavvur-ideallarning tarkib torishiga olib keldi. "...aslida dinlar insoniyatni bir-biridan ayirmaydi, balki Alloh, xayr, axloq va shafqat yo'lida birlashtiradi, insonni moddaning quliga aylanishidan xalos yetadi. Tabiiy tuyg'u bo'lgan va boshqa millatlar haq-huquqlariga daxl qilmaydigan, aksincha, ularga hurmat ko'rsatadigan mo'tadil millatlarastlik ilmiy, milliy va insoniy g'oyalarga muvofiq keladi"[7;29-b.]. Garchi bu davrda ajdodlarimiz politeizmdan monoteizm dunyoqarashiga o'tgan va ezgulik ibtidosi va bosh xudosi Axuramazdani (Ormuzd, Xormuzd) ideal sifatida tan olgan bo'lsalarda, axloqiy ideal yakka Axuramazda bilan chegaralanmagan. Uning ezgulik uchun izlanishda, tabiat va inson hayotida osoyishtalik, ezgulik va tartib o'rnatishda unga yordam beruvchi ilohiy mavjudodlar-Axuralar (keyinchalik farishtalar sifatida idrok etilgan) ham ideal tarzida tasavvur qilingan. Ezgulik ideallari-Axuramazda va Axuralar zulmat va yovuzlik timsollari-devlar bilan doimiy kurashib tabiat va odamzotni balo-qazolar (yovuzlik xudosi Angra Maynyu va uning devlari)dan saqlovchi obrazlar tarzida tushunilgan. "Avesto"ning tub ma'no va mohiyatini belgilab beradigan "yezgu fikr, yezgu so'z, yezgu amal" degan tamoyilni oladigan bo'lsak, unda hozirgi zamon uchun ham behad ibratli bo'lgan saboqlar borligini ko'rish mumkin. Ana shunday fikrlar, ya'ni yezgu niyat, so'z va ish birligini jamiyat hayotining ustuvor g'oyasi sifatida talqin yetish bizning bugungi ma'naviy ideallarimiz bilan naqadar uzviy bog'liq, nechog'liq mustahkam hayotiy asosga ega yekanligi ayniqsa etiborlidir" [2;32-b.].

Inson axloqi ijtimoiy munosabatlarda ideal sifat kasb etib borishi hayot talablari, mustahkam rishtalar, kishilik jamiyati uchun yeng umumiy, yeng samarali va hamma etiqod qiladigan mavhumlik raydo bo'lishi bilan yuzaga kelavergan [11]. Qadimgi afsona, yertak, doston va rivoyatlarda xalqning orzu-umidi, baxt-saodati kabi tushunchalar bilan ifodalangan. Bunday idealning ijodkori xalq bo'lib, uni real hayot bilan adekvatligi nisbiydir. Demak, axloq munosabatlarida idealning shakllanishi va axloqiy ideal deb nomlanishini tarixiylik-mantiqiylik nuqtayi-nazaridan tahlil qilsak, unda bu jarayon to'rt yo'nalishda amalga oshganini guvohi bo'lish kerak: *birinchidan*, axloqdagi idealni kishilararo ijobiy, mukammal munosabat tarzida rivojlanishi; *ikkinchidan*, inson va yaratuvchi o'rtasidagi ijobiy, ilohiy munosabatlar belgisi sifatida rivojlanishi;

uchinchidan, inson va jamiyat tizimida yuksak namunalar tamoyillar birligi sifatida rivojlanishi; *to'rtinchidan*, inson va tabiat o'rtasida sinkretik, ijtimoiy-yekologik ijobiy munosabatlarining ramzi sifatida rivojlanganini aytish mumkin.

Sharq axloqiy tafakkur taraqqiyotida Qur'oni Karim, Muhammad sallallohu alayhi va sallamning hamda Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Al-Buxoriyning "Al-Jomi' as-sahih" (Ishonarli to'rlam) hadislariga katta ahamiyatga ega bo'ldi. Biz bu yerda zardushtiylik ta'limotidan bir necha ming yillar o'tishiga qaramasdan undagi insoniy axloq-odob qonun-qoidalarining, diniy etiqod va rasm-rusumlardagi ayrim ko'rinishlar, sharqona belgilarning saqlanib qolgani, yangi zamon, yangi etiqodlarga moslab transformatsiya qilinganini ta'kidlamochi yemasimiz.

Biz uchun "Avesto"dan keyingi Sharq xalqlari ma'naviy-axloqiy takomilida katta ahamiyatga ega bo'lgan islom falsafasining uirik ratsional irmoqlari va islomiy axloqiy idealning Qur'oni Karim va Hadislarda bayon yetilgan ta'rif, tafsir va g'oyalarida ifodalanishini tadqiq qilamiz. Qur'oni Karimdagi ideal insonni zalolatdan, zulmatdan hidoyat sari chorlaydigan, yeng avvalo roklaydigan ma'nolar mag'zanidir. Ushbu manbada insonga aql berilgani, uni tafakkurga undovchi tafsilotlar juda ko'r. Mukammal etiqod, saodatli inson, komil insonning shakllanishi kabi yo'l-yo'riqlardan iborat.

Qur'oni Karimda Allohga berilgan sifatlar shundan dalolat beradiki, "Rarvardigor – bir Ideal, uning olami mutlaq roklik olami. Shuning uchun inson ham batamom rok bo'lgandagina bu olamga yerisha oladi. Rok bo'lish uchun yesa qalbdagi shu roklik timsoli ulug' Tangriga behudud va ado bo'lmas muhabbat bo'lishi kerak. Bu muhabbat mavhum bir tuyg'u yemas. Balki Iloh yaratgan moddiy olamdagi go'zallik – Ilohning kalomi va jamoli aks yetgan narsalar va Uning gulto'ji insonga muhabbat orqali boradi»[3;247-b.]. Masalan, Muhammad rayg'ambar hadislarida Ollohning xulqi muxtasar tarzda "mehribon va rahmlilikdan" iborat, deb ta'riflanadi. Binobarin, har bir inson o'z amallarini ana shunday mehribonlik va rahmlilik tuyg'ulariga burkangan holda boshqarishlari lozim. Ana shunday odamlargina jannat nematiga sazovor bo'ladi. "Kimda-kim yomonlik kasb qilsa va gunohga o'ralib qolsa, ana o'shalar do'zax egalaridir"[13;46-b.]. Qur'oni Karimda yaxshilik qilish, yaxshilikka intilish ixtiyoriy bo'lmog'i kerakligi ta'kidlanadi. (Baqara surasi, 158-oyat). S'hunki yaxshilik insonni xudoga, xudoni insonga yaqinlashtiradi. "Yaxshilik qiling! Albatta Alloh yaxshilik qiluvchilarni sevadi"[13;62-b.]. Allohning o'zi abadiy Tirik va abadiy Turguvchidir. Uni na mudroq, na uyqu oladi, Samovat va Yerdagi bor narsalar Uningdir. U yeng Yuksak va Buyukdir (Baqara surasi, 255-oyat). Inson o'z axloqiy idealida ana shu Yuksaklik va Buyuklik, Abadiy Sergaklik sari intilishi, bu niyatga sodiq va vafodor bo'lmog'i lozim. Qur'oni Karimning boshidan oxirigacha Allohga berilgan sifatlar diniy ideal mazmuni va xususiyatlarini o'zida mujassam yetadi. Yaxshi va oliyjanob insonga xos fazilatlar bilan chambarchas Alloh sifatleri ana shu tarzda diniy idealdan axloqiy idealga timsol sifatida ko'chib o'tadi. Bu murakkab yevolyusion jarayondir.

Tasavvuf ta'limotida komil inson g'oyasi ilk bor shakllandi, uning diniy-falsafiy va amaliy jihatlari ishlab chiqildi. Iloh ishqida yashash va Haqqa intilish diniy, axloqiy idealning ilohiylashuv, ayni chog'da, insoniylashuv xususiyatini ifodalaydi. Ruhiiy-ma'naviy takomillashuv tasavvufda komil inson qiyofasini belgilab berdi. Sharq mutafakkirlari axloqiy idealning o'ziga xos konsepsiyasini ishlab chiqib, uni islom va tasavvuf doirasida komil insonni shakllantirishning asosi sifatida rivojlantirdilar.

Inson o'z ruhiyatini poklab va samoviy yuksaklik sari ko'tarib Haqqa yetadi va so'ngra yana xalqqa qaytadi. Tasavvufiy axloqiy ideal ana shunday pastdan balandga, jismdan ruhiyatga, tasavvurdan tafakkur tomon ko'tariluvchi inson ma'naviyatining ma'rifatini ko'zda tutadi. Zero, "komillik tushunchasi axloqiy ideal tushunchasida muayyan mazmun kasb etadi va bu narsa axloqiy-falsafiy va diniy tafakkur tarixida o'z ifodasini topgan" [1;378-b.].

Ulug' mutafakkirlar Jaloliddin Rumi bilan Shams Tabriziy, Abdurahmon Jomiy bilan Alisher Navoiy o'rtalaridagi munosabatlar ilohiy sifatning inson qiyofasidagi namunalaridir. Bu ulug' siymolar bir-birlaridan andoza olganlar, bir-birlariga kamolot mezoni, yetuklik timsoli vazifasini o'taganlar.

Bu yoʻnalishning sharq falsafiy tafakkuridagi ahamiyati shundaki, keyinchalik axloqiy ideal mavhum ilohiylikdan konkret shaxs va insonlarning axloq-odobi hamda xatti-harakatlari sari yuz oʻgirdi.

Tadqiqotchi N.Eshonkulova taʼkidlaganidek, “Naqshband “Dil ba yor, dast ba kor” (“Dil yor bilan, qoʻl ish bilan band boʻlsin”) yoki “Dil ba haq, xud ba xalq” (“Dil yaratuvchi bilan, oʻzing esa odamlar bilan”) degan gʻoyani ilgari surib [12;4-b], tasavvufiy qarashlarga real hayotiylikni olib kirgan, ... Aziziddin Nasafiy komillikni real hayotiy talablar, insoniy fazilatlar bilan bogʻliqligini ilmiy-falsafiy asoslashga intilgan” [10;114-b.]. Bunday axloqiy idealning hayotlashuv jarayonida Mansur Xalloy, Boyazid Bistomiy, Yahyo Suxravardiy, Aynulquzzot Hamadoniy, Imomiddin Nasimiy, Badriddin Hiloliy, Zunnun Misriy, Abdulloh Ansoriy, Jaloliddin Rumiy, Ibn-al Arabiy, Junayd Bagʻdodiy, Hakim Termiziy, Abusaid Abulxayr, Fariddin Attor, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshbandlarning xizmatlari katta boʻldi.

Yuqorida tahlil yetilgan muammolarning yechimlari borasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

“Avesto”da axloqiy ideal ezgu fikr, ezgu soʻz va ezgu amal birligidan iborat insoniy fazilatlar sifatida bayon yetilgan, sinkretik tafakkur axloqiy idealni rivoyatlar, gʻayritabiiy holatlar, jihatlarining real insonlar hayot tarzi bilan hamohang tarzda idrok yetgan [4;116-b.].

“Avesto”ning maʼnaviy magʻzini tashkil qilgan “roklanish” keyinchalik diniy va ijtimoiy amaliyotlarda axloqiy idealni belgilashda katta ahamiyat kasb yetgan. Oʻz navbatida islom va tasavvuf taʼlimotida maʼnaviy-axloqiy komillikka intilishning asosiy mezonlaridan biriga aylangan.

Islom dini va uning taʼlimotlarida axloqiy idealning barcha maʼnaviy qirralarini ifoda yetuvchi, Alloh jamolini mutlaq ideal sifatida qabul qilishning yaxlit tizimi yaratilganligi musulmon kishisining axloqiga shakl bergan.

Tasavvuf taʼlimotida komil inson gʻoyasi ilk bor shakllandi, uning diniy-falsafiy va amaliy jihatlari ishlab chiqildi. Iloh ishqida yashash va Haqqa intilish diniy, axloqiy idealning ilohiylashuv, ayni chogʻda insoniylik xususiyatini ifodalaydi. Ruhiy-maʼnaviy takomillashuv tasavvufda komil inson qiyofasini belgilab berdi. Sharq mutafakkirlari axloqiy idealning oʻziga xos konsersiyasini ishlab chiqib, uni islom va tasavvuf doirasida komil insonni shakllantirishning asosi sifatida rivojlantirdilar.

Umuman olganda, oʻtmish xalqlardan meros boʻlib qolgan maʼnaviy-axloqiy manbalarda inson axloqi qanday boʻlishi kerak, jamiyatda va ijtimoiy-siyosiy tizimlarda qanday ishlarni qilsa adolatli boʻladi, toʻgʻri boʻladi degan fikrlar ilgari surilgan boʻlib, pand-nasihad, ibrat, tajribalarni almashish kabi ijtimoiy xususiyatga ega axloqiy idealni madh qilishgan. Oʻz davri uchun muhim ahamiyatga ega boʻlgan hayotning har sohasi axloqiy kodekslarini keltirib oʻtib, xatti-harakatlarni idealga bogʻlab tushuntirishgan. Axloqiy ideal haqida aniq va toʻliq tasavvur hosil qilishda uning tizimli xususiyatiga eʼtibor qaratilgan.

ADABIYOTLAR:

1. Гусейнов А.А., Апресян Р.Г. Этика: Учебник. - М.: Гардарики, 2000.- 472с.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2011. – 176 б.
3. Комилов Нажмиддин. Тасаввуф / Н.Комилов; - Т.: «Movarounnahr» -Ўzbekiston, 2009. – 248 б.
4. Мамедов А.А. Религиозно-философские идеи Авесты: диссертация ... кандидата философских наук. – Москва, 1995. – 116 с.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yoʻlimizni qatʼiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga koʻtaramiz. - Toshkent: “Ўzbekiston” NMIU, 2017. - 592 b.
6. Толстой Л.Н. Иқронома. Озод Шарафиддинов таржимаси. –Т.: Маънавият, 2018. – 112 б.
7. Usmon Turon. Turkiy xalqlar mafkurasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. – 160 b.
8. Эркаев А. Миллий ғоя ва маънавият. –Тошкент: Маънавият, 2002. -240 б.
9. Eshonkulova N.A., Yusupova F.Z. Phenomena Of Happiness In Philosophy And The Meaning Of Life //Boletin de Literatura Oral-The Literary Journal. – 2023. – Т. 10. – №. 1. – С.3944-3948.
10. Eshonkulova N.A. Vaxt-saodat fenomeni va uning ijtimoiy-antropologik mohiyati: falsafa fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD). dis. - Toshkent: 2021. - 162 b.

11. Yusupova F.Z., Eshonkulova N.A. Ideal And Values As The Expression Of The Aspiration Of The Human Towards Spiritual Perfection// Boletin De Literatura ral - The Literary Journal, 10(1), Vol. 10 No. 1 (2023). Pg no: 3939-3943. ISSN: 2173-0695 (Scopus).
12. Qayumov A. Bu ohang ila bo'lg'asen Naqshband... - Toshkent: 1993. - 68 b.
13. Qur'oni Karim. Ўzbekcha izohli tarjima. Tarjima va izohlar muallifi Abdulaziz Mansur. – Toshkent: Qur'oni Karimni ўrganish ilmiy markazi, 1992. – 672 b.
14. <https://ziyouz.uz/hikmatlar/aforizmlar/abu-rayhon-beruniy-hikmatlari/>
15. <https://www.hikmatlar.uz/quote/345>

REZYUME:

Ushbu maqolada xalq maʼnaviy merosining kvintessensiyasi mutafakkirlar qarashlarida, aʼyanalarida va ijtimoiy-axloqiy ideallarida aks etib borishi, milliy va diniy qarashlar ijtimoiy amaliyot kabi omuxtalashib, imon va maslakda uygʻunlashib ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-axloqiy qarashlarda aks etib borishi yoritilgan.

Kalit soʻzlar: ijtimoiy taraqqiyot, xalq maʼnaviy merosi, kvintessensiya, milliy va diniy qarashlar, etnomadaniy qadriyatlar, ijtimoiy-axloqiy ideal.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье освещается, квинтэссенция духовного наследия нации. Она находит своё отражение во взглядах, традициях и социально-этических идеалах мыслителей. Национальные и религиозные взгляды сочетаясь с социальной практикой, верой и веяниями отражаются в общественно-политических, социально-этических воззрениях.

Ключевые слова: социальное развитие, национальное духовное наследие, квинтэссенция, национально-религиозные воззрения, этнокультурные ценности, социально-этический идеал.

RESUME:

This article highlights that the quintessence of the spiritual heritage of the nation is reflected in the views, traditions and socio-ethical ideals of thinkers, national and religious views combined with social practice, faith and trends are reflected in socio-political, socio-ethical views.

Key words: social development, national spiritual heritage, quintessence, national and religious views, ethnocultural values, socio-ethical ideal.